



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **FARG‘ONA OBLASTIDA SUD TIZIMI: XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA XALQ SUDYALARI (QOZILAR) FAOLIYATI VA HUQUQIY ME‘YORLAR LEGALIZATSIYASI**

**Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi**  
Andijon davlat chet tillari instituti, o‘qituvchi

### **Annotatsiya**

Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona oblastida (Turkiston general-gubernatorligi tarkibida) sud tizimi, xususan xalq sudyalari (qozilar) faoliyati va huquqiy me‘yorlarning legalizatsiyasi masalalari kompleks tarzda tadqiq etilgan. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati doirasida 1865-yilgi “Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat Nizom” va keyingi islohotlar asosida qozilik sudlarining tuzilishi, qozilar saylovlari, vakolatlarining cheklanishi, shariat qonunlari bilan imperiya huquqining qo‘sh tanlash tamoyili tahlil qilingan. Muhammad Aziz Marg‘iloniyning “Tarixi Aziziy” asari, O‘zbekiston Milliy arxivi hujjatlari va ilmiy adabiyotlar negizida Farg‘ona viloyatidagi qozilik mahkamalarining amaliy faoliyati, notarial hujjatlar (vasiqa, iqronoma, vakolatnoma) rasmiylashtirish tartibi, pora va suiste‘mol holatlari, mahalliy an‘analar bilan mustamlaka tartiblarining o‘zaro ta‘siri ochib berilgan. Tadqiqot sud tizimining jamiyat boshqaruvidagi uzluksizligini, mustamlaka tamoyillarining qo‘llanilishini va milliy huquqiy merosning saqlanishini dalillaydi.

**Kalit so‘zlar:** Farg‘ona oblasti, qozilik sudlari, Turkiston mustamlakasi, shariat huquqi, huquqiy islohotlar, vasiqa hujjatlari, Muhammad Aziz Marg‘iloniy, mustamlaka sud tizimi.

## **“СУДЕБНАЯ СИСТЕМА ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ: ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ НАРОДНЫХ СУДЕЙ (КАЗИЕВ) И ЛЕГАЛИЗАЦИЯ ПРАВОВЫХ НОРМ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА”**

**Раупова Муштарибегим Илхомжон кизи**  
Андижанский государственный институт иностранных языков, преподаватель

### **Аннотация**

В статье комплексно исследована судебная система Ферганской области (в составе Туркестанского генерал-губернаторства) в конце XIX – начале XX вв. с акцентом на деятельность народных судей (казиев) и легализацию правовых норм. На основе Временного положения 1865 г. «Об управлении Туркестанским краем» и последующих колониальных реформ Российской империи проанализированы структура судов казиев, порядок их избрания, ограничение полномочий и принцип двойного применения норм шариата и имперского права. На материалах «Тарихи Азизай» Мухаммада Азиза Маргиланского, документов Национального архива Узбекистана и научной литературы раскрыта практическая деятельность казийских судов Ферганской провинции, порядок оформления нотариальных документов (васика, икрорнома, ваколатнома), случаи взяточничества и злоупотреблений, взаимодействие местных традиций и колониальных порядков. Исследование подтверждает преемственность судебной системы в управлении обществом, применение колониальных принципов и сохранение национального правового наследия.

**Ключевые слова:** Ферганская область, суды казиев, колониальный Туркестан, шариатское право, правовые реформы, нотариальные документы, Мухаммад Азиз Маргиланский.

## **“THE JUDICIAL SYSTEM OF FERGANA OBLAST: ACTIVITIES OF PEOPLE’S**

## **JUDGES (QOZIS) AND LEGALIZATION OF LEGAL NORMS IN THE LATE 19th – EARLY 20th CENTURIES”**

**Raupova Mushtariybegim Ilkhomjon qizi**  
Andijan State Institute of Foreign Languages, Teacher

### **Abstract**

The article comprehensively studies the judicial system in the Fergana Oblast (as part of the Turkestan Governor-Generalship) in the late 19th – early 20th centuries, focusing on the activities of people’s judges (qozis) and the legalization of legal norms. Based on the 1865 “Provisional Statute on the Administration of the Turkestan Region” and subsequent colonial reforms of the Russian Empire, the structure of qozi courts, election procedures, limitation of powers, and the principle of dual application of Sharia and imperial law are analyzed. Using Muhammad Aziz Marg‘iloniy’s “Tarikhi Aziziy,” documents from the National Archive of Uzbekistan, and scientific literature, the practical work of qozi courts in Fergana province, the formalization of notarial documents (vasiqa, iqronoma, vakolatnoma), cases of bribery and abuse of power, and the interaction between local traditions and colonial regulations are revealed. The study confirms the continuity of the judicial system in societal governance, the application of colonial principles, and the preservation of national legal heritage.

**Keywords:** Fergana Oblast, qozi courts, colonial Turkestan, Sharia law, legal reforms, notarial documents, Muhammad Aziz Marg‘iloniy.

Jahon huquq tarixida odil sudlov, sud tizimining shakllanish dinamikasi va huquqiy me‘yorlarning legalizatsiyasi masalalari doimiy tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda ham xalqaro miqyosda sud hokimiyatining mustaqilligi, fuqarolarning odil sudlovga erishish huquqini ta‘minlash va huquqiy an‘analarning uzluksizligini saqlash masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, «Sharqiy Yevropa, Janubiy Kavkaz va Markaziy Osiyo mamlakatlarida sud hokimiyati mustaqilligi masalalariga bag‘ishlangan Kiyev konferensiyasi» (2013) tavsiyalarida sudlar tarixini, jumladan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda xalq sudlari (qozilar) faoliyatini chuqur o‘rganish va uning amaliy ahamiyatini yoritish dolzarb vazifalar qatoriga kiritilgan. Ushbu tavsiyalar bugungi kunda ham Markaziy Osiyo mamlakatlarida sud-huquq islohotlarini amalga oshirishda muhim yo‘l-yo‘riq sifatida xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida huquq ustuvorligini ta‘minlash va sud tizimini takomillashtirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qabul qilingan “Beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning ikkinchi yo‘nalishi — qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini oshirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash va sud tizimini xalq manfaatlariga xizmat qiladigan darajaga ko‘tarish vazifalari belgilab qo‘yilgan. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”da ta‘kidlanganidek, “tarixiy-ma‘naviy omil, ya‘ni xalqimizning ulkan madaniy merosi” har qanday islohotning mustahkam negizi hisoblanadi. Shu ma‘noda, milliy huquqiy merosni chuqur o‘rganish zamonaviy sud-huquq islohotlarini ilmiy asosda amalga oshirish uchun zaruriy shartdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PF-2789-sonli Farmoni, 2018-yil 17-apreldagi PF-5415-sonli Farmoni, 2017-yil 28-iyuldagi PK-3160-sonli va 2018-yil 28-noyabrdagi PK-4038-sonli qarorlari fan va ta‘lim tizimini rivojlantirish, milliy madaniyat va huquqiy merosni o‘rganish bo‘yicha aniq vazifalarni belgilab bergan. Mazkur me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilganidek, tarixiy tajribani tahlil qilish orqali bugungi kun islohotlarini samarali amalga oshirish mumkin. Shu bois, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida, xususan, Farg‘ona oblastida amal qilgan sud tizimini o‘rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olgandan keyin (1865-yildan boshlab) mahalliy sud tizimiga jiddiy o'zgartirishlar kiritdi. 1865-yil 6-avgustdagi "Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat Nizom"ga asosan Farg'ona oblastida o'troq aholi uchun qozilik sudlari, ko'chmanchi aholi uchun biylik sudlari tashkil etildi. Bu davrda qozilik instituti tubdan o'zgartirildi: qozikalon lavozimi bekor qilindi, qozilar saylov yo'li bilan tayinlanadigan bo'ldi, ularning vakolatlari cheklandi va shariat qonunlari bilan rus imperiya qonunchiligi o'rtasida murakkab qo'sh tanlash (dual) tizimi shakllandi. Shu bilan birga, mahalliy huquqiy an'analar butunlay yo'q qilinmadi, aksincha, mustamlaka ma'muriyati ularni o'z manfaatlariga mos ravishda saqlab qoldi va ishlatdi. Farg'ona oblasti Turkiston general-gubernatorligining muhim iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo'lganligi sababli, bu yerda qozilik sudlari faoliyati ayniqsa jonli kechgan. Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona) shahri va uning atrofidagi volostlarda qozilar nafaqat fuqarolik va jinoiy ishlar, balki vaqf mulklari, meros, nikoh, savdo-sotiq munozaralari, jamoat axloqi va kundalik maishiy masalalarni ham hal qilgan. Muhammad Aziz Marg'iloniyning "Tarixi Aziziy" asari bu davr sud tizimining ichki mexanizmlari, qozilarning vazifa va vakolatlari, shuningdek, mustamlaka ma'muriyati bilan mahalliy aholining o'zaro munosabatlari haqida nodir ma'lumotlar beradi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlarda Farg'ona oblastidagi xalq sudyalari (qozilar) faoliyati va huquqiy me'yorlarning legalizatsiyasi masalasi yaxlit va maxsus mavzu sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Ko'pgina tadqiqotlar umumiy mustamlaka siyosati, islom huquqi yoki alohida shaharlar (Toshkent, Samarqand) misolida cheklangan holda yoritilgan. Farg'ona oblastidagi qozilik mahkamalarining amaliyoti, notarial hujjatlar (vasiqa, iqromnoma, vakolatnoma)ni rasmiylashtirish tartibi, saylov jarayonlaridagi noqonuniy holatlar va mahalliy an'analar bilan mustamlaka qonunlarining o'zaro ta'sirini kompleks tarzda tahlil qilish ilmiy bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona oblastida sud tizimining shakllanishi, qozilar faoliyati va huquqiy me'yorlarning legalizatsiyasi jarayonlarini tarixiy-huquqiy jihatdan tahlil qilish, arxiv manbalari va "Tarixi Aziziy" asari materiallari asosida yangi ilmiy xulosalar chiqarishdir. Tadqiqotda tarixiy, qiyosiy-huquqiy, manbashunoslik va sotsiologik usullardan foydalanilgan. Ushbu ish natijalari nafaqat huquq tarixi va manbashunoslik fanlarini rivojlantirishga, balki zamonaviy sud-huquq islohotlarida milliy tajribadan foydalanishga ham xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Sud tizimi faoliyati va huquq tarixiga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda ularni uch asosiy guruhga bo'lish mumkin: 1) Rossiya imperiyasi va sovet davrida yaratilgan asarlar; 2) O'zbekiston mustaqilligi yillaridagi ilmiy tadqiqotlar; 3) xorijiy mualliflarning ishlanmalari.

Birinchi guruhga mansub adabiyotlarda (I.Y. Foyntskiy, A.A. Kaufman, A.N. Dobrosmislov, N.P. Ostroumov, N.S. Likoshin) Turkistondagi sud tizimi, qozi va harbiy sudlar faoliyati haqida dastlabki ma'lumotlar uchraydi. Biroq bu asarlar mustamlaka tuzumi manfaatlarini nuqtayi nazaridan yozilgan bo'lib, mahalliy sud tizimini ko'pincha "qoloq" va "ortiqcha" deb baholagan. Sovet davrida esa X.S. Sulaymonova, Sh. Urazayev, N. Milshteyn, F. Bakirov, N.I. Abidova, G.P. Sarkisyans kabi mualliflar sud-huquq tizimining shakllanish tarixini o'rgangan. Ushbu tadqiqotlarda kommunistik mafkura hukmron bo'lgani uchun manbalar bir tomonlama talqin qilingan va mustamlaka davridagi sud tizimi asosan sinfiy kurash nuqtayi nazaridan yoritilgan.

Mustaqillik yillarida ilmiy tadqiqotlar yangi bosqichga ko'tarildi. N. Abduraximova, X. Sadikov, S.D. Boltaboyev, B.M. Rasulov, F. Isoxqov, D.A. Ismoilova, D.J. Urakov, N. Qodirov, Sh.B. Muhammedov va boshqalar Rossiya mustamlakachilik siyosati, Turkistondagi boshqaruv tizimi, islom dini va vaqf mulklari masalalarini arxiv hujjatlariga asoslanib o'rgangan. Xususan, S.D. Boltaboyev va M.M. Kuldashev sud-huquqiy manbalarni yuridik tahlil qilgan, D.A. Ismoilova islom dinining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rnini ochib bergan. Sh.X. Vohidov, A.K. Mo'minov, Sh.Y. Mahmudov, I.I. Bekmirzayev, B.M. Bobojonov, Z.M. Jo'rayevlarning ishlari

esa Qo‘qon xonligi davlat boshqaruvi, fiqh ilmi va qozilik institutining oldingi tarixiga bag‘ishlangan.

Biroq yuqoridagi tadqiqotlarning ko‘pchiligida Farg‘ona oblastidagi xalq sudyalari (qozilar) faoliyati va huquqiy me‘yorlarning legalizatsiyasi masalasi alohida va yaxlit mavzu sifatida o‘rganilmagan. Ular asosan umumiy mustamlaka siyosati yoki Toshkent, Samarqand kabi yirik markazlar misolida cheklangan.

Uchinchi guruh — xorijiy tadqiqotchilar ishlari (P.P. Litvinov, D.Y. Arapov, P. Sartori, E. Schuyler, J. Schacht, A. Mets) bo‘lib, ularda Turkistondagi sud tizimi imperiya miqyosida ko‘rib chiqilgan. Ayniqsa, Paolo Sartorining “*Visions of Justice: Sharia and Cultural Change in Russian Central Asia*” asari shariat qonunlarining mustamlaka davridagi amaliyoti va mahalliy sudyalarning rolini chuqur tahlil qilgan holda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlarda Farg‘ona oblastidagi qozilik mahkamalarining amaliy faoliyati, notarial hujjatlar (vasiqa, iqronoma, vakolatnoma)ni rasmiylashtirish tartibi, saylov jarayonlaridagi noqonuniy holatlar va shariat bilan imperiya huquqining qo‘sh tanlash tamoyili maxsus kompleks tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Mazkur bo‘shliqni to‘ldirish ushbu maqolaning ilmiy yangiligini tashkil etadi.

### **Tadqiqot metodlari**

Tadqiqotda fanlararo yondashuv asos qilib olingan bo‘lib, quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. **Tarixiy metod** — voqealarni xronologik tartibda o‘rganish va rivojlanish dinamikasini aniqlash uchun qo‘llanildi. XIX asr 60-yillaridan XX asr boshlarigacha bo‘lgan davr bosqichma-bosqich tahlil qilindi.
2. **Qiyosiy-huquqiy metod** — shariat qonunlari bilan Rossiya imperiyasi qonunchiligi, qozilik sudlari bilan mirovoviy va harbiy sudlar faoliyatini solishtirish orqali ularning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berildi.
3. **Manbashunoslik va arxivshunoslik metodlari** — asosiy manbalar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O‘zMA) fondlari (I-19, I-336, I-276 va boshqalar), Muhammad Aziz Marg‘iloniyning “Tarixi Aziziy” asari, qo‘lyozma manbalar (“Dastur ul-amal”, “Qonun” va boshqalar) hamda rasmiy nizomlar jalb qilindi. Arxiv hujjatlariga tayangan holda birlamchi manbalardan foydalanildi.
4. **Sotsiologik va statistik tahlil metodi** — saylov jarayonlaridagi suiiste‘mollar, pora holatlari va qozilar faoliyatiga oid arxiv materiallarini miqdoriy hamda sifat jihatdan tahlil qilishda qo‘llanildi.
5. **Mantiqiy va tizimli tahlil** — sud tizimining tarkibiy qismlari (qozilar, ellikboshilar, harbiy gubernator, viloyat sudi), ularning o‘zaro aloqasi va funksiyalarini tizimli ravishda ko‘rib chiqish imkonini berdi.
6. **Kompleks yondashuv** — huquqshunoslik, tarixshunoslik, manbashunoslik va sharqshunoslik fanlarining yutuqlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy asosligini ta‘minlash uchun birlamchi manbalar (arxiv hujjatlari va “Tarixi Aziziy”) ikkilamchi manbalar (ilmiy adabiyotlar) bilan qiyoslandi. Bu metodlar majmui mavzuni har tomonlama va obyektiv yoritishga imkon berdi.

**NATIJARLAR VA MUHOKAMA.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona oblastidagi sud tizimi mustamlakachilik siyosati va mahalliy huquqiy an‘analarning murakkab uyg‘unlashuvidan iborat bo‘lgan. Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan islohotlar (1865-yilgi muvaqqat Nizom va keyingi o‘zgartirishlar) mahalliy sud tizimini butunlay yo‘q qila olmagan, aksincha, uni o‘z manfaatlariga mos ravishda moslashtirgan.

Birinchi muhim natija shundaki, qozilik sudlari uzluksizligi saqlanib qolgan. O‘rta asrlardan beri mavjud bo‘lgan qozilik instituti mustamlaka davrida ham jamiyat hayotining asosiy huquqiy tartibga soluvchi mexanizmi bo‘lib qoldi. Farg‘ona oblastida (Yangi Marg‘ilon va atrof volostlarda) qozilar nafaqat oddiy fuqarolik va jinoiy ishlar, balki meros taqsimoti, vaqf mulklari

nazorati, nikoh, ajralish, savdo munozaralari, jamoat axloqi va hatto kundalik maishiy masalalarni (suv chiqindisi, hammom va hojatxona qoidalari) ham hal qilgan. Bu holat sud tizimining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi barqaror o'rnini tasdiqlaydi.

Ikkinchi muhim natija — saylov tizimiga mustamlaka tamoyillarining joriy etilishi. 1867-yildan boshlab qozilar ellikboshilar tomonidan saylanadigan bo'ldi, ammo asosiy mezon "hukumatga sadoqat" edi. Arxiv materiallari (O'zMA, I-19-fond) shuni ko'rsatadiki, saylov jarayonlarida pora, oilaviy aloqalar va suiiste'mollar keng tarqalgan. Masalan, Mulla Nurmat Eshboyev va Mulla Abdurasul ishlarida bug'doy, pul va qimmatbaho sovg'alar orqali lavozim egallash holatlari qayd etilgan. Bu esa mahalliy aholi orasida "kognitiv dissonans"ni keltirib chiqargan — rasman demokratik deb e'lon qilingan saylovlar aslida mustamlaka nazorati vositasi bo'lgan. Uchinchi natija — huquqiy me'yorlarning qo'sh tanlash (dual) tamoyili. Qozilik mahkamalarida ishlar shariat qoidalari asosida ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, og'ir jinoyatlar, davlat manfaatlariga daxldor ishlar (temir yo'l, telegraf, telefonga zarar yetkazish) va rus fuqarolari bilan bog'liq nizolar harbiy gubernator tasdig'iga yoki chor sudlariga o'tkazilgan. Bu holat mahalliy aholining huquqiy himoyasini zaiflashtirgan, ammo shu bilan birga an'anaviy huquqiy madaniyatni saqlab qolishga imkon bergan. To'rtinchi natija — notarial va protsessual hujjatlarning rivojlanishi. Tadqiqot davomida vasiqa, iqrornoma (iqror xati), vakolatnoma, meros vasiqasi, savdo vasiqasi va tortiq vasiqalari kabi hujjatlarning rasmiylashtirish tartibi aniqlandi. Bu hujjatlar shariat talablari bilan birga imperiya protsessual qoidalari ham moslashtirilgan. Muhammad Aziz Marg'iloniyning "Tarixi Aziziy" asari bu borada eng muhim manba bo'lib, qozilarning vazifalari (vasiy tayinlash, zakot va sadaqa nazorati, jamoat binolari holatini kuzatish) batafsil yoritilgan.

Muhokama qismida ta'kidlash lozimki, Rossiya imperiyasi "ajrat va hukmronlik qil" siyosatini sud tizimida ham muvaffaqiyatli qo'llagan. Qozilarning vakolatlarini cheklash, harbiy sudlarni kuchaytirish va pora holatlarini nazorat qilish orqali mahalliy sud tizimining nufuzini pasaytirishga harakat qilingan. Shu bilan birga, to'liq yo'q qilishga erishilmagan, chunki mahalliy aholining ishonchini saqlab qolish va boshqaruvni arzon usulda amalga oshirish zarur edi. Paolo Sartori va boshqa xorijiy tadqiqotchilarning fikrlariga qo'shilgan holda aytish mumkinki, mustamlaka davridagi sud tizimi "inklyuziv" emas, balki "eksklyuziv" xususiyatga ega bo'lgan — mahalliy aholiga nisbatan cheklangan huquqlar va rus aholisi uchun ustunlik berilgan. Farg'ona oblastidagi holat buni yaqqol tasdiqlaydi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, olingan natijalar zamonaviy sud-huquq islohotlarida milliy huquqiy merosdan foydalanish, qozilik an'alarining ijobiy tomonlarini (tezkorlik, mahalliy aholi ishonchi, axloqiy me'yorlarni hisobga olish) hisobga olish imkonini beradi. Shu bilan birga, mustamlaka davridagi suiiste'mollar tajribasi korrupsiyaga qarshi kurashda muhim saboq bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, Farg'ona oblastidagi sud tizimi tarixi mustamlakachilik sharoitida milliy huquqiy o'zlikni saqlab qolishning murakkab va ziddiyatli jarayoni bo'lganini ko'rsatadi. Bu tajriba bugungi kunda ham huquq ustuvorligini ta'minlash va sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash masalalarida dolzarbdir.

**Xulosa.** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona oblastidagi sud tizimi mustamlakachilik sharoitida milliy huquqiy an'analar va imperiya boshqaruv tamoyillarining murakkab, ziddiyatli va o'ziga xos uyg'unlashuvidan iborat bo'lgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan sud islohotlari (1865-yilgi muvaqqat Nizom va keyingi o'zgartirishlar) mahalliy sud tizimini butunlay yo'q qila olmagan, aksincha, uni o'z mustamlaka siyosati manfaatlariga mos ravishda moslashtirib, saqlab qolgan.

Eng muhim natijalardan biri shundaki, qozilik instituti o'rta asrlardan meros bo'lib kelgan huquqiy madaniyatning uzluksizligini ta'minlagan. Farg'ona oblastida qozilar nafaqat oddiy fuqarolik va jinoiy ishlar, balki vaqf mulklari, meros taqsimoti, nikoh va ajralish, savdo munozaralari, jamoat axloqi hamda kundalik maishiy masalalarni ham hal qilgan. Bu holat sud tizimining jamiyat hayotidagi barqaror va muhim o'rnini tasdiqlaydi.

Tadqiqotda aniqlangan ikkinchi asosiy xususiyat — huquqiy me'yorlarning qo'sh tanlash (dual) tamoyilining shakllanishi. Qozilik mahkamalarida ishlar asosan shariat qoidalarida asosida ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, davlat manfaatlariga daxldor ishlar, og'ir jinoyatlar va rus aholisi bilan bog'liq nizolar harbiy gubernator tasdig'iga yoki imperiya sudlariga o'tkazilgan. Bu mexanizm mahalliy huquqiy tizimni zaiflashtirgan bir paytda, uni to'liq yo'q qilish o'rniga cheklangan holda saqlashga xizmat qilgan.

Uchinchi muhim natija — qozilar saylov tizimiga mustamlaka tamoyillarining chuqur singdirilishi. Rasman demokratik deb e'lon qilingan saylovlar amalda "hukumatga sadoqat" mezoniga asoslangan bo'lib, pora, oilaviy aloqalar va suiiste'mollar keng tarqalgan edi. Arxiv hujjatlari (O'zMA, I-19-fond) bu jarayonning ochiq noqonuniyligini yaqqol ko'rsatadi.

Tadqiqot shuni ham isbotladiki, notarial hujjatlar (vasiqa, iqronoma, vakolatnoma, meros vasiqasi va boshqalar)ni rasmiylashtirish tartibi shariat talablari bilan imperiya protsessual qoidalarining sintezi natijasida shakllangan. Muhammad Aziz Marg'iloniyning "Tarixi Aziziy" asari bu borada eng qimmatli manba bo'lib xizmat qildi. Ilmiy yangilik sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin: Farg'ona oblastidagi xalq sudyalari (qozilar) faoliyati va huquqiy me'yorlar legalizatsiyasi birinchi marta kompleks, fanlararo yondashuv asosida maxsus tadqiq qilindi; arxiv materiallari va "Tarixi Aziziy" asari negizida qozilik mahkamalarining amaliy mexanizmlari, saylovdagi suiiste'mollar va notarial hujjatlar tizimi chuqur tahlil qilindi.

**Amaliy ahamiyati.** Olingan natijalar zamonaviy O'zbekistonda sud-huquq islohotlarini chuqurlashtirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Milliy huquqiy merosning ijobiy tomonlari — tezkorlik, mahalliy aholi ishonchi, axloqiy me'yorlarni hisobga olish va adolat tamoyillarini zamonaviy sud tizimida qo'llash imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, mustamlaka davridagi korrupsiya, pora va hokimiyat suiiste'moli holatlari bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashda muhim tarixiy saboqdir. Xulosa qilib aytganda, Farg'ona oblastidagi sud tizimi tarixi mustamlakachilik sharoitida milliy huquqiy o'zlikni saqlab qolishning murakkab va ziddiyatli, ammo samarali mexanizmi bo'lganini ko'rsatadi. Bu tajriba bugungi kunda ham qonun ustuvorligini ta'minlash, sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish va "Yangi O'zbekiston" strategiyasida belgilangan maqsadlarni amalga oshirishda muhim manba hisoblanadi. Milliy huquqiy merosni chuqur o'rganish orqali kelajakda yanada adolatli, samarali va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan sud tizimini barpo etish mumkin. Tadqiqotning davomi sifatida Turkistonning boshqa oblastlaridagi (Sirdaryo, Samarqand, Yettisuv) qozilik sudlari faoliyatini qiyosiy tahlil qilish va mustaqillik davridagi sud islohotlari bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. — Toshkent: Ma'naviyat, 2017. — 244 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021. — 33 b.
3. Foynitskiy I. Y. Jinoyat sud ish yuritish kursi. — Sankt-Peterburg: Alfa nashriyoti, 1996. — B. 605.
4. Kaufman A. A. Ko'chirish va kolonizatsiya. 1-qism: Davlat va ko'chirish (1861–1904). — Peterburg, 1905. — B. 335.
5. Dobrosmislov A. N. Toshkent o'tmishda va hozir. — Toshkent, 1912. — B. 107.
6. Ostroumov N. P. Islomshunoslik: kirish kursi. — Toshkent, 1914. — B. 181–183.
7. Likoshin N. S. Turkistonda turmush tarzi: mahalliy aholi hayoti ocherklari. — Petrograd, 1916. — B. 363.
8. Sulaymanova X. S. Tanlangan asarlar. I jild. — Toshkent: Fan, 1967.
9. Urazayev Sh. Turkiston ASSR davlat-huquqiy asoslari. — Toshkent: Gosizdat, 1958.
10. Bakirov F. Chor Turkistonida sud, shariat va odat. — Toshkent: Fan, 1967.
11. Abidova N. I. O'zbekistonda qozilar sudi va ularni tugatish jarayoni xususiyatlari (1917–

- 1928): tarix fan. nomz. avtoreferati. — Toshkent, 1974.
12. Abduraximova N. A. Turkistonda kolonial boshqaruv tizimi (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshi): tarix fan. dokt. avtoreferati. — Toshkent, 1994.
  13. Boltaboyev S. D. Turkiston o'lkasida vaqf mulklari (XIX asr II yarmi – XX asr boshi): tarix fan. nomz. dissertatsiyasi. — Toshkent, 1995.
  14. Kuldashv M. M. Turkiston o'lkasi huquqining manbalari (1864–1917): yuridik fan. nomz. dissertatsiyasi. — Samarqand, 2005.
  15. Ismoilova D. A. Islom dinining Turkiston ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotidagi o'rni (XIX asr oxiri – XX asr boshi): tarix fan. nomz. dissertatsiyasi. — Toshkent, 2006.
  16. Urakov D. J. Turkistonda Rossiya imperiyasi ma'muriy axborotlari tarixiy manba sifatida: tarix fan. nomz. dissertatsiyasi. — Toshkent, 2006.
  17. Vohidov Sh. X. Qo'qon xonligida tarixnavislik (XIX – XX asr boshi): tarix fan. dokt. dissertatsiyasi. — Toshkent, 1998.
  18. Mahmudov Sh. Y. Qo'qon xonligining ma'muriy-boshqaruv tizimi (1709–1876): tarix fan. dokt. dissertatsiyasi. — Toshkent, 2007.
  19. Bekmirzayev I. I. Movarounnahrda qozilik hujjatlari. — Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2014.
  20. Sartori P. Adolat konsepsiyalari: Rossiya Markaziy Osiyosida shariat va madaniy o'zgarishlar. — Leiden; Boston: Brill, 2016.
  21. Schuyler E. Turkiston. — Nyu-York, 1876.
  22. Schacht J. Islom huquqiga kirish. — Oksford: Clarendon Press, 1965.
  23. Tajixonov U. T. Yuridik ensiklopediya. — Toshkent: Sharq, 2001.
  24. Hamidova M. O'zbekiston davlati va huquq tarixi. — Toshkent: TDYUI, 2004.
  25. Eshonova Sh. Markaziy Osiyoda qozilar sudlari faoliyatining huquqiy asoslari. — Toshkent: Noshir, 2010.
  26. Saidov A. X. Jahon mamlakatlarining huquqiy tizimlari: qomusiy lug'at. — Toshkent: Anprint, 2006.
  27. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 11-jild. — Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
  28. Abdumajidov F. A. Qozilik sudlari: tarixdan saboqlar // Odillik mezoni. — 2020. — № 4.
  29. Muhammad Aziz Marg'iloniy. Tarixi Aziziy / nashrga tayyorlovchilar: Sh. Vohidov, D. Sattorova. — Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
  30. Abduraximova N. A., Ergashev F. R. Turkistonda chor mustamlaka tizimi. — Toshkent: Akademiya, 2002.
  31. Raxmonov A. R., Raxmanov A. R. Islom huquqi. — Toshkent: TDYUI, 2007.
  32. Bartold V. V. Turkiston madaniy hayoti tarixi. — Leningrad: SSSR FA nashriyoti, 1927.
  33. Ziyoyev X. Turkiston Rossiya tajovuziga qarshi kurashda. — Toshkent: Sharq, 1998.
  34. Tillaboyev S. B. Turkiston boshqaruv tizimi (XIX–XX asr boshlarida): tarix fan. nomz. dissertatsiyasi. — Toshkent, 2006.
  35. Brusina O. I. Turkistonda nikoh va ajrim // Etnografik sharh. — 2012. — № 1.
  36. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O'zMA), I-19-fond, 1-ro'yxat, 3987-ish.
  37. O'zMA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 3984-ish.
  38. O'zMA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 9054-ish.
  39. O'zMA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 13276-, 13277-, 13279-, 13759-ishlar.
  40. O'zMA, I-336-fond, 1-ro'yxat, 26-ish.
  41. O'zMA, I-276-fond, 1-ro'yxat, 12-ish.
  42. FASHI qo'lyozmalar fondi: № 730 (“Qonun”), № 571 (“Dastur ul-amal”), № 748.
  43. Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyoda davlat boshqaruvi tarixi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
  44. Topchibashev N. Qo'qon xonligi va Rossiya diplomatik aloqalari. — Toshkent: Fan, 2007.
  45. Akramova Sh. Davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi motivatsiya // Xalq ta'limi. — 2017.